



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 454 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Ilxomjon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqitirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarining ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
Raimqulova Sojida Abdusaid qizi	
Qandli diabet bilan og'riqan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
Shermatova Yakut Sabirovna	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
Turdiyeva Zilola Jalilovna	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
Xalikova Umida Mirovna	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна	
Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari	156
Kushakova Gulnora Egamkulovna	
Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish	160
Normurodova Gulnora Ikromovna	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari	164
Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi	
Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri	168
Jurakulova Dildora Ziyadullayevna	
Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	172
Kazakova Saxiba Abdurayimovna	
Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari.....	178
Ziyayev Adxamjon	
Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini	182
Jo'rayeva Nozima Nozim qizi	
Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi	185
Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	189
Teshaboyeva Feruza Raximovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri.....	192
Ashirova Sojida Baxromovna	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy pedagogik ildizlari	196
Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna	

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	200
Jabborova Salomat Abdijalilovna	
Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni.....	204
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish	208
Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi	213
Raximova Xurshidaxon Sadikovna	
Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	217
Xalikova Nargiza Abduvaliyevna	
Tilning obrazli kuchi: perifrazalar turlari va xususiyatlari	221
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	224
Zayirkulova Nozima Ilyas qizi	
Mentorlik faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish	229
Zikriyayev Zokir Mamirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish.....	232
Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, Sunnatullayeva Amina	
Professional kompetentlik va uning shaxs psixologik xususiyatlari bilan o'zaro bog'liqligi	235
Artikova Nodira Shavkat qizi	
Talaba qizlarni jismoniy faolligini rivojlantirish tasnifi va ularni orgatish metodikasi.....	240
Otasheva Oysanamxon Hamidulla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik	245
Bekchanova Kuvanch Roximovna	
Voleybolchilarni tayyorlashda differensial vositalaridan foydalanishning zarurligini, ularning o'yin amplusini hisobga olgan holda aniqlash usullari	249
Kambarov Kozimjon Ibragimovich	
2-toifa diabet bilan bog'liq stressga qarshi kurashish strategiyalari va psixologik holatlar	254
Sadikova Umida Botirovna	
Boshlang'ich ta'limda vizual va multimediyaviy texnologiyalarning pedagogik-psixologik ahamiyati	258
Raximova Faridabonu Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida VARK modeli asosida multimodal o'qitishni tashkil etish (OAK talablariga mos maqola).....	261
Raximova Mushtariy Alisher qizi	
Raqamli ta'lim muhitida veb-texnologiyalar asosidagi platformalarning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va optimallashtirish	264
Zoxidov Jahongir Botirxonovich	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan koxlear implantli bolalar og'zaki nutqini umumta'lim jarayonida ona tili darslarida rivojlantirish metodikasi.....	272
Isoqjonova Dilfuzaxon Muxtorjon qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni mustaqil ta'lim jarayonida kasbiy malakani shakllantirishning samarali metodlari	276
Teshabayeva Oyguil Fazliddinovna	
Yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish darajasiga o'ziga ishonch va o'z-o'zini qadrlashning ta'siri	280
M. R. Sultonova	
Shifoxonalarda tashkil etilgan maktablarda bemor o'quvchilar bilan faoliyat olib boruvchi pedagoglarga qo'yiladigan talablar	284
Umarova Saboxon Minavvarovna, Abdusattorova Gulxumor	



Chet til ta'limida mustaqil ishni tashkil etish masalalariga doir	287
Erkayev Elmirza Temirovich	
10–11 yoshli futbolchilarda tezkorlik sifatini rivojlantirish metodikasi.....	294
Ishmuratov Hasanboy Karimjonovich	
Jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining samaradorligini oshirish usullari	298
Yaqubov Arslon Maxmudovich	
Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati va uning o'rganilishi	301
Dinora Eshboyeva Alisher qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy kompetensiyalarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish. Axloqning kelib chiqishi va asoslanish masalasini nazariy tahlil qilish	306
Shaxayev Bauirjan Seytgalievich	
Maktabgacha ta'limda STEAM ta'lim texnologiyalarini qo'llashda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	310
Ahmedova Zuhaxon Mamurovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi va zaruriyati	314
Mirzabayeve Zebo Umarovna	
Elektrolitlarda elektr toki mavzusini o'qitishda noto'g'ri tasavvurlar va ularni bartaraf etish metodikasi	317
Xoliqov Qurbonboy To'ychiyevich	
Mediata'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya faoliyatini takomillashtirish .	323
Ibodullaeva Dildora Shukrulla qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda montessori metodikasining uyg'unligi	327
Ismatova Shodiya Ne'matilla qizi, Xaydarova Shaxlo Narzullayevna	
XIV asr oxiri va XV asr boshlari turkiy tillar taraqqiyotini o'rganishda "Kitob ul-Bulg'at" asarining lingvistik tadqiqi	332
Tursunaliyeva Muslimabonu Abduvosit qizi	
Informatika ta'limida interfaol o'quv majmualari asosida o'yinli texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish.....	336
Nabiyev Feruz Abdumannonovich	
STEAM loyihalari asosida maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish.....	341
Choriyor Maxmatraimov Eshmatovich	
Psixolog talabalarda tolerantlik va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish	345
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna	
Raqamli ta'lim muhitining pedagogik salohiyati asosida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish (texnologiya fanini o'qitish misolida).....	348
Kulboyeva Dilnoza Abdug'ofurovna	
O'zbek tili – faxrim, g'ururim	351
H. Shukurova, M.Jumanazarova	
Zamonaviy dars – pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni.....	355
M. Kuzibayeve	
Talabalarni ta'lim jarayonida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	358
Mastonov Jahongir Mamatqul o'g'li	
Raqamli maktabda yashil o'quv dasturi: kengaytirilgan va virtual reallik texnologiyalari bilan integratsiyaning pedagogik modeli.....	362
Maxmudov Abdiqodir Yusupovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbiy faoliyat jarayonida pedagogik empatiyani shakllantirish pedagogik muammo sifatida	367
Orinbaeva Jarqinay Djuginis qizi	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	371
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova	

Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda nazariya va amaliyot integratsiyasi muammolari	377
Sh. A. Xujakulov, T. B. Kadirov	
Uzoq muddat davolanayotgan bolalarning matematik savodxonligini oshirishda fanlararo bog'lanishning roli.....	383
Tursunova Dildora Ziyadullayevna, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li	
Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning "Maorif" asarida bilish etikasi va ma'naviy-axloqiy tarbiya	387
Tursunova Nilufar Samiyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	393
Tursunova Saidra Isakovna	
Yosh avlodni tarbiyalashda hamkorlik tarbiya texnologiyasining o'rni	396
Pirlijeva Gulmira Botir qizi	
Integrativ raqamli-didaktik yondashuv asosida interfaol o'quv majmuallardan foydalanish muammolari va rivojlanish istiqbollari.....	400
Nabiyev Feruz Abdumannonovich, Mamanazarov Baxrom Jumonovich	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatda bilish jarayonlarini rivojlantirish	405
Sadirova Kamola Giyozovna	
Kurash sport turining yoshlar jismoniy va ma'naviy rivojlanishidagi ahamiyati.....	409
O'razboyeva Adiba Abdug'ani qizi	
Bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta'minlashning pedagogik yondashuvlari.	413
Xalmuxamedov Bobir Taxirovich	
О развитии учебно-познавательной деятельности студентов	418
М. Халикова	
Психологические механизмы искажения истины в процессе социализации: нормативно-когнитивная модель и смешанное эмпирическое исследование	421
С. Ю. Нишанов	
Методы повышения речевой активности студентов в процессе обучения иностранному языку.....	425
Утешова Зернегул Хурметуллаевна	
Prenatal va erta chaqaloqlik rivojlanishi va rivojlanishning biologik asoslari	429
N. Mirbabayeva	
O'smir shaxsining rivojlanishi	433
Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
O'zbekistonning ma'naviy va madaniy hayotida jadidlarning tutgan o'rni	435
N. M. Qodirova	
Development of Physical Qualities Through the Use of Special Physical Exercises With Student Participation.....	439
Rikhsiev Dilshod Shavkatovich	
Tabiiy fan darslarida STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati	442
Umaraliyeva Baxtilaxon Raxmonali qizi	
Special Physical Exercises in Coxarthrosis During the Preoperative and Postoperative Periods of Rehabilitation.....	446
Valiev Farrukh Nigmatjonovich	
Роль цифровых технологий и дидактических принципов в учебных практик.....	449
Байметов М. М.	



BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA AXLOQIY KOMPETENSIYALARNI KASBIY FAOLIYATIDA QO'LLAY OLISH. AXLOQNING KELIB CHIQISHI VA ASOSLANISH MASALASINI NAZARIY TAHLIL QILISH

Shaxayev Baurjan Seytgalievich

Guliston davlat universiteti tayanch doktranti,
13.00.02 – “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi”

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida axloqiy kompetensiyalarni qo'llay olish masalalari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning jamoa bilan hamkorlikdagi faoliyati, o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiya jarayonida axloqiy me'yor va qadriyatlarining o'ri hamda axloqning kelib chiqishi va mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy faoliyat jarayonida axloqiy kompetensiyalardan samarali foydalanish usullari va ularning pedagogik ahamiyati asoslab berilgan. Maqola ilmiy-pedagogik jamoatchilik uchun nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: axloq, moralis, prinsip, axloq kodeksi, ideallar va standartlar, axloqiy me'yor, fe'l-atvor, odat, xarakter, xulq-atvor, qonun, moda, gedonizm, evdemonizm.

Abstract: This article provides a theoretical analysis of the application of moral competencies by future teachers in their professional activities. The study examines the characteristics of cooperative interaction among prospective educators, their pedagogical engagement with students in the teaching and learning process, as well as the origin and essential nature of morality. In addition, the methods of effectively using moral competencies in professional practice and their pedagogical significance are substantiated. The article serves as a theoretical resource for the academic and pedagogical community.

Key words: morality, moralis, principle, code of ethics, ideals and standards, moral norm, behavior, habit, character, conduct, law, fashion, hedonism, eudaimonism.

Аннотация: В данной статье теоретически анализируются вопросы применения нравственных компетенций будущими педагогами в профессиональной деятельности. В исследовании рассматриваются особенности взаимодействия будущих учителей в коллективе, их педагогическое сотрудничество с учащимися в процессе обучения и воспитания, а также происхождение и сущностное содержание нравственности. Обоснованы методы эффективного использования нравственных компетенций в профессиональной деятельности будущих учителей и раскрыта их педагогическая значимость. Статья может служить теоретическим источником для научно-педагогической общности.

Ключевые слова: нравственность, moralis, принцип, кодекс этики, идеалы и стандарты, нравственная норма, поведение, привычка, характер, образ действий, закон, мода, гедонизм, эвдемонизм.

KIRISH

Axloq va etika atamaları asl ma'nosida o'zaro chambarchas bog'liqdir. Birinchi axloq (lotincha moralis so'zidan – to'g'ri, tarbiyalovchi degan ma'noni bildiradi) odamlarning xulq-atvori va faoliyatini tartibga soluvchi eng muhim, obyektiv harakat qiluvchi ijtimoiy institutdir. Shu bilan birga, axloq ijtimoiy ong shaklini va axloqiy munosabatlar deb ataladigan maxsus ijtimoiy munosabatlar turini tavsiflaydi. Axloq – etikani o'rganish predmeti bo'lib, “odat” yoki “turmush tarzi” degan ma'noni anglatadi.

Axloqning zamonaviy qo'llanilishi xulq-atvor va etikani (yoki axloq falsafasini), ya'ni axloqiy xulq-atvorni o'rganishni anglatadi. Bu jarayonda “axloqiy harakat” va “axloq kodeksi” tushunchalari muhim o'rin tutadi. Mazkur tushunchalar muayyan standartlarga muvofiqlikni anglatadi. Bo'lajak o'qituvchilar ish faoliyatida amal qilishi lozim bo'lgan prinsiplar (qoidalar) va kasb burchini axloqiy jihatdan bajarish mezonlarini axloq kodeksi



hamda boshqa huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiradilar. Axloqiy qarorlar qabul qilinadigan eng yuqori qadriyatlar odatda normalar, prinsiplar, ideallar yoki standartlar deb ataladi.

Masalan, ba'zi faylasuflar baxtni axloqni baholashimiz kerak bo'lgan eng oliy qadriyat sifatida tanlaydilar, ya'ni baxt – axloqqa amal qilish zarurligi haqidagi xulosaga keladilar. Yunon faylasufi Platon ushbu tamoyil-larning muhimligini ikki ming yil avval ta'kidlab o'tgan.

Baxt-saodatni me'yor, prinsip, ideal yoki standart sifatida ham ko'rish mumkin. Baxtga yetaklovchi yo'l axloqning me'yorlari, prinsip va ideallariga amal qilish bilan bog'liqdir. Oliy maqsad, masalan, inson o'z oldiga maqsad qo'yib, uni amalga oshirganda, idealga va oliy maqsadga erishgan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Axloq va axloqiy kompetensiyalar masalasi falsafa va pedagogika fanlarida qadimdan tadqiq etib kelinadi. Qadimgi yunon faylasuflari Platon va Aristotel axloqni insonning ma'naviy kamoloti va jamiyat barqarorligining asosiy omili sifatida talqin qilgan. Platon axloqiy yetuklikni oliy ezgulik va adolat bilan bog'lagan bo'lsa, Aristotel axloqiy fazilatlarni odat va tarbiya orqali shakllanadigan sifatlar sifatida izohlagan. Ushbu yondashuvlar keyinchalik axloqning me'yoriy va tarbiyaviy mohiyatini ochib berishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

Yevropa falsafasida axloq masalasi Immanuel Kant va Georg Hegel asarlarida chuqur tahlil qilingan. Kant axloqiy xulq-atvorni burch va vijdon bilan bog'lab, axloqiy qarorlar insonning ichki mas'uliyatiga tayangan holda qabul qilinishini ta'kidlaydi. Hegel esa axloqni huquq, axloq va odob bosqichlari orqali rivojlanadigan ijtimoiy hodisa sifatida izohlaydi. Uning qarashlarida axloqiy xatti-harakat jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarning shaxs ongiga singdirilishi jarayoni bilan bog'liq holda talqin qilinadi, bu esa pedagogik faoliyatda axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

O'zbekiston pedagogika ilmidagi ham bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi dolzarb yo'nalish sifatida o'rganilgan. Xususan, R.G. Safarova bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik hamkorlikka tayyorlash jarayonida kasbiy va axloqiy mas'uliyatning ahamiyatini asoslab bergan. Shuningdek, Z.S. Xudoynazarova tadqiqotlarida talabalarda kommunikativ va axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli¹ Farmoni hamda oliy ta'limni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlarda o'qituvchilarning kasbiy etika va axloqiy kompetensiyalariga alohida e'tibor qaratilishi mazkur mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy kompetensiyalarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish masalasini o'rganishda nazariy-pedagogik yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot ma'lumotlari ilmiy adabiyotlar, falsafiy va pedagogik manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda axloq va kasbiy etika masalalariga oid ilmiy maqolalarni tizimli o'rganish orqali to'plandi. Ma'lumotlarni olish jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish hamda mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Axloqiy kompetensiyalarning mazmun-mohiyatini aniqlashda turli ilmiy qarashlar o'zaro solishtirilib, ularning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati tahlil qilindi. Olingan nazariy ma'lumotlar asosida bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishga doir umumiy xulosalar chiqarildi hamda ularning kasbiy faoliyat bilan uzviy bog'liqligi asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Axloqiy me'yor biz to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lgan axloqiy harakatlar to'g'risida hukm chiqarishimiz mumkin bo'lgan prinsiplar majmuasidir. Bunga qonun ustavi, diniy nufuz, jamoat fikri yoki vijdonni misol qilib ko'rsatish mumkin. Axloq madaniy va institutsional doirada avloddan avlodga, guruhdan guruhga, shaxsdan shaxsga o'tadi va obyektiv maqomga ega bo'ladi.

Etika (axloq falsafasi) ijtimoiy axloqni o'rganadi, axloqiy me'yorlarni shakllantiradi, odamlarni boshqa kishilarning manfaatlarini hisobga olishga hamda shu orqali ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishga o'rgatadi. Qadimgi Rim madaniyatida "axloq" so'zi inson hayotining ko'plab hodisalari va sifatlarini bildirgan: fe'l-atvor, odat, xarakter, xulq-atvor, qonun, moda va boshqalar. Keyinchalik ushbu so'zdan moralis (xarakterga, odatga taalluqli ma'noda) atamasi shakllangan, undan esa eramizning IV-asrida moralitas (axloq) tushunchasi vujudga kelgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>



Hozirgi vaqtda “etika” so’zi o’zining asl ma’nosini saqlagan holda falsafiy fanni anglatadi, axloq esa ushbu fan tomonidan o’rganilayotgan shaxsning haqiqiy hodisalari va sifatlarini ifodalaydi. Axloqiy mavzularning o’zbekcha asosiy prinsipi “xulq” so’zidir, u xarakter, ehtiros, iroda hamda yaxshi yoki yomon narsaga moyillikni qamrab oladi. Shuningdek, axloqni odob asosidagi hayotga yo’l ko’rsatadigan, ehtirolarni jilovlaydigan va insonning burch hamda lavozimlarini bajarishga xizmat qiladigan ko’rsatmalar va qoidalarini o’z ichiga olgan donolikning bir qismi sifatida talqin qilish mumkin.

Axloqiy me’yorlar haqida yetti donishmandga tegishli bo’lgan ayrim fikrlarni keltirish mumkin: “Yoshi ulug’larni hurmat qil” (Xilon), “Ota-onangni rozi qilishga shoshil” (Fales), “Eski qonunlarga amal qil, biroq ovqatning yangisini afzal bil” (Periander), “Me’yor – bu eng zo’r narsadir” (Kleobul), “O’zboshimchalikni olovdan ko’ra tezroq o’chirish kerak” (Geraklit) va hokazo.

Ko’p asrlar davomida faylasuflar va mutafakkirlar ezgulik, burch, vijdon hamda ularning o’zaro aloqalari to’g’risida fikr yuritganlar. Jumladan, nemis faylasufi Georg Gegelning fikriga ko’ra, yaxshilik o’z rivojlanishida uchta bosqichni bosib o’tadi: huquq, axloq va odob. Gegel g’oyasiga ko’ra, “huquq” me’yorlariga amal qilgan inson yomon harakatlar yoki jinoyatlarni sodir etmaydi va faqat jazodan qo’rqgani sababli o’zini ijtimoiy maqbul tarzda tutadi. Agar jazolashning aniq tahdidi mavjud bo’lmasa, inson osonlik bilan jinoyat yoki qonunbuzarlik sodir etishga moyil bo’lishi mumkin.

“Axloq” me’yorlariga amal qilgan inson esa yomon harakatlar va jinoyatlarni sodir etmaydi, chunki u ma’naviy ayblovlardan qo’rqadi va jamiyatda qabul qilingan yaxshilik va yomonlik mezonlarini angelaydi. Bunday shaxs birovning narsasini olmaydi, chunki u “yaxshi odamlar bunday qilmaydi”, “odobli jamiyatda bu qabul qilinmaydi” yoki “bu axloqsiz ish” ekanligini aniq biladi. Natijada, bunday xulq-atvor jazodan qo’rqishga emas, balki to’g’ri va noto’g’ri ongli ravishda tushunishga asoslanadi.

“Odob” bosqichida inson o’zini interiorizatsiya qiladi. Interiorizatsiya – bu tashqi norma, qoidalar, qarash yoki qadriyatlarining shaxsning ichki dunyosiga singdirilishi jarayonidir. Ya’ni, inson jamiyat, oila, maktab va ijtimoiy muhit ta’siri orqali o’rgangan qoidalar va qadriyatlarni o’zining ichki ehtiyojiga aylantiradi. Bu jarayon ijtimoiy normalarni ichki qabul qilish orqali, masalan, “navbatni kutish” yoki “atrofni ifloslantirmaslik” kabi odatlarda namoyon bo’ladi.

Bugungi kunda axloqqa amal qilishda uchta asosiy omil muhim hisoblanadi: axloqiy huquq, axloqiy din va axloqiy qadriyatlar. Axloqning huquq bilan bog’liqligi jamiyatda inson xatti-harakatlarini tartibga soluvchi axloqiy me’yorlarning huquqiy normalarning mazmuni, shakllanishi va qo’llanilishiga ta’sir ko’rsatishida namoyon bo’ladi. Huquq esa axloqiy qadriyatlarni davlat tomonidan majburiy bajarilishi ta’minlangan rasmiy me’yorlar orqali mustahkamlashga xizmat qiladi.

O’zbekiston Respublikasida davlat va jamiyatda qonuniy huquq va erkinliklarni tartibga soluvchi hamda himoya qiluvchi uchta javobgarlik kodeksi mavjud: Jinoyat javobgarlik kodeksi, Ma’muriy javobgarlik kodeksi va Fuqarolik kodeksi. Ushbu kodekslar orqali jamiyatda fuqarolarning huquq va erkinliklari ta’minlanadi.

Axloqning din bilan bog’liqligi shundan iboratki, ko’plab axloqiy me’yorlar diniy ta’limotlar orqali shakllanadi va insonning hayotiy xulq-atvorini tartibga solishda muhim yo’riqnoma bo’lib xizmat qiladi. Masalan, halollik tamoyili din nuqtai nazaridan har qanday muomalada halol bo’lish zarurligi bilan izohlanadi, axloqiy jihatdan esa inson halolligi jamiyatda ishonch va barqaror munosabatlarni ta’minlaydi.

Axloq qadriyatlar bilan bevosita bog’liq bo’lib, axloqiy qoidalar ko’pincha jamiyat yoki shaxs tomonidan qadrlanadigan ideallar va tamoyillarga asoslanadi. Qadriyatlar axloqiy xatti-harakatlar uchun muhim yo’l-yo’riq vazifasini bajaradi. Jumladan, mehribonlik va hamdardlik qadriyati boshqalarni qadrlash va ularga yordam berish zarurligini ifodalaydi, bu esa axloqiy me’yor sifatida kasal yoki qiyin vaziyatdagi insonlarga yordam ko’rsatishda namoyon bo’ladi. Adolat qadriyati esa hamma uchun tenglik, haqiqat va huquqni hurmat qilishni anglatib, insonning boshqalar bilan munosabatda adolatli bo’lishi va birovning huquqini buzmasligini taqozo etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Axloqiy kompetensiyalar – bu insonning axloqiy me’yor va qadriyatlarga asoslanib to’g’ri qaror qabul qila olish, mas’uliyatli va halol xulq-atvor namoyon eta olish qobiliyatidir. Oddiy qilib aytganda, bu “nima to’g’ri, nima noto’g’ri” ekanini anglab, shunga mos ravishda harakat qilish ko’nikmasidir.

Axloqiy kompetensiyalarga halollik, ya’ni rostgo’y va vijdonli bo’lish, mas’uliyat, o’z harakatlari uchun javob bera olish, hurmat, boshqalarning huquqi va fikrini qadrlash, adolat, teng va haqqoniy munosabatda bo’lish, empatiya, boshqalarning his-tuyg’ularini tushuna olish, hamda bag’rikenglik, turli fikr va qarashlarga toqatli bo’lish kabi sifatlar kiradi. Ushbu kompetensiyalar maktab va ta’lim jarayonida, ish joyida (kasbiy etika doirasida), jamiyat va oilada, shuningdek, rahbarlik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, o’qituvchi o’quvchilarga baho qo’yishda adolatli bo’lsa yoki rahbar qaror qabul qilish jarayonida jamoadagi barcha a’zolarining manfaatini inobatga olsa, bu holatlar axloqiy kompetensiyaning amaliy namu-



nalari hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat nazariy bilim berish, balki shaxsiy namuna, muhit va amaliy tajriba orqali tarbiyalash jarayonini ham o'z ichiga oladi.

Bu jarayonda qadriyat va kasbiy etika asoslarini o'rgatish, pedagogik etika, kasbiy mas'uliyat, adolat va halollik tushunchalarini chuqur anglatish, o'qituvchining jamiyatlardagi o'rni va ma'naviy mas'uliyatini tushuntirish hamda "o'qituvchi – namuna" tamoyilini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalaridagi professor-o'qituvchilarning o'zlari axloqiy namuna bo'lib, halollik, hurmat va adolatni amalda ko'rsatishi, talabalarga nisbatan xolis va insonparvar munosabatda bo'lishi zarur.

Umuman olganda, bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish uzluksiz, tizimli va kompleks jarayon bo'lib, unda bilim, shaxsiy namuna, amaliy tajriba va o'zini anglash jarayonlari o'zaro uyg'un holda faoliyat yuritishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Roxat Gaybullayevna Safarova, pedagogika fanlari doktori, professor. "Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik hamkorlik faoliyatiga tayyorlash imkoniyatlari" mavzusidagi maqolasidan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni.
3. Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti Xudoynazarova Zulayho Sohbnazarovanning "Talabalarda kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga innovatsion yondashuvlar" mavzusidagi maqolasidan.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.